


**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA
QO‘MITASI**

TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI



**TOSHKENT SHAHRINING
STATISTIK AXBOROTNOMASI**

**2021-YIL
YANVAR-DEKABR**

Toshkent – 2022

SO‘Z BOSHI

Toshkent shahrining statistik axborotnomasi – Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, iqtisodiyot tarmoqlari va hududlar holatini kompleks tavsiflovchi Toshkent shahar statistika boshqarmasining choraklik nashri hisoblanadi. Statistik axborotnomada 2021-yil yanvar-dekabr oylari yakunlari bo'yicha Toshkent shahrining asosiy statistik ko'rsatkichlari chop etilgan.

Ushbu nashrda statistik ko'rsatkichlar Yevropa hamjamiyatining Iqtisodiy faoliyat turlari statistik tasniflagichiga (NACE Rev.2) asoslangan O'zbekiston Respublikasi Toshkent shahrining iqtisodiy faoliyat turlari umumdavlat tasniflagichi (2 tahrir) bo'yicha shakllantirilgan va taqdim etilgan.

Shu bilan birga, mavjud faoliyat turlaridan foydalanishda IFUT-2 talablari qo'llanilgan. Xususan, foydalanilayotgan yoki qayta ishlanayotgan mahsulotlarni ularning yangi turlariga qayta shakllantirishga yo'naltirilgan barcha faoliyat turlari ishlab chiqarish jarayonlariga kiritilgan: tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, qayta ishlab chiqarish sanoati, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, qurilish (tasniflagichning B,C,D,E,F seksiyalari).

Shuningdek, xalqaro statistika amaliyotiga muvofiq, iqtisodiy trendlarni yanada aniqroq tahlil qilish maqsadida, Yalpi hududiy mahsulot tuzilmasidagi faoliyat turlarining ulush ko'rsatkichlari yalpi qo'shilgan qiymatga nisbatan keltirilgan (ya'ni, YAHM hajmidan mahsulotlarga soliqlar va subsidiyalar ta'siri chiqarib tashlangan).

Nashr 12 ta tematik qismlardan tashkil topgan bo'lib, u asosiy makroiqtisodiy indikatorlarni, shuningdek yalpi hududiy mahsulotni ishlab chiqarish, korxonalar va tashkilotlar, jumladan kichik tadbirkorlik sub'ektlarining iqtisodiy faoliyati, tashqi iqtisodiy aloqa, sanoat, investitsiya va qurilish, transport, tovar va xizmatlar bozori, demografiya va mehnat bozorlarining rivojlanish dinamikasi to'g'risidagi statistika ma'lumotlarini o'z ichiga oladi.

Qisqartma va shartli belgilar

YAHM	–	yalpi hududiy mahsulot	l.	–	litr
%.	–	Foiz	0,0	–	katta bo‘lmagan miqdor
mlrd.	–	milliard	m.	–	marta
mln.	–	million	–	–	ko‘rsatkichning yo‘qligi
mln.AQSH doll.	–	million AQSH dollari	ga.	–	gektar
kv.	–	kvadrat	tn.	–	tonna
km.	–	kilometr	yo‘lovchi/km	–	yo‘lovchi-kilometr
m	–	metr	1), 2), 3)	–	izohning mavjudligi

MUNDARIJA

Nomi	bet.
ASOSIY IQTISODIY KO'RSATKICHLAR	6
I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT ISHLAB CHIQRISH	7
II. SANOAT	12
III. INVESTITSİYALAR VA QURILISH	33
IV. XIZMATLAR	47
V. TRANSPORT	67
VI. ISTE'MOL BOZORI	69
VII. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR	79
VIII. KICHIK TADBIRKORLIK (BIZNES)	90
IX. KORXONA VA TASHKIOTLARNING MOLIYAVIY NATIJALARI	97
X. KORXONALAR VA TASHKIOTLAR FAOLIYATINING UMUMIY TAVSIFI	104
XI. O'RTACHA OYLIK NOMINAL HISOBLANGAN ISH HAQI	114
XII. DEMOGRAFIK HOLAT	117

**Asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar
2021 -yil yanvar-dekabr oylari**

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>2020 -yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>
Yalpi hududiy mahsulot	121829,5	114,1
Sanoat mahsuloti	86099,6	113,9*
Iste'mol tovarlari	34029,8	128,3
Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar	57611,3	104,0
Qurilish ishlari	26409,3	117,7
Yuk aylanmasi (mln. tn-km)	2471,0	122,1
Yo'lovchi aylanmasi (mln. yo'lovchi-km)	11228,8	115,6
Chakana tovar aylanmasi	61434,4	117,2
Xizmatlar, jami	103909,7	120,4
Tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSh doll.)	16431,6	132,9
Eksport	3799,1	130,0
Import	12632,4	133,9
Saldo (+;-)	-8833,3	x

* Mahsulotning fizik hajmi 2021-yil yanvar-dekabr (2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan)


I. YALPI HUDUDIIY MAHSULOT ISHLAB CHIQARISH

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2021-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi joriy narxlarda 121829,5 mlrd. so'mni tashkil etib, 2020- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 114,1 foizga teng bo'ldi.

Yanvar-dekabr oylari uchun iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YAHM ishlab chiqarish

	<i>mlrd. so'm</i>		<i>2020-yil yanvar-dekabrga nisbatan foiz hisobida</i>
	<i>2020-yil</i>	<i>2021-yil</i>	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	97108,0	121829,5	114,1
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87190,2	110212,0	114,1
Mahsulotlarga sof soliqlar	9917,8	11617,5	114,3
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	87190,2	110212,0	114,1
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	38160,0	49053,8	114,7
Sanoat	30015,1	38013,5	113,9
Qurilish	8144,9	11040,3	117,7
Xizmatlar	49030,2	61158,2	113,6
Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	12389,7	16777,5	118,4
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	10542,6	13316,1	120,2
Boshqa xizmat tarmoqlari	26097,9	31064,6	108,6


YAHMning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'sish sur'atlari, foizda
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)




Toshkent shahri iqtisodiyotning asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YAHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, sanoat ishlab chiqarish indeksi – 113,9 % ni tashkil etib (YAHM tarkibidagi ulushi 34,5 %), qurilish – 117,7 % (10,0 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 118,4 % (15,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 120,2 % (12,1 %) va xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar – 108,6 % (28,2 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan foizda)

2020 - yil yanvar-dekabr





2021 - yil yanvar-dekabr



- savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- tashish va saqlash, axborot va aloqa
- xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar

2021-yil yanvar-dekabr oylari davomida Toshkent shahri bo'yicha savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 15,2 % ni (2020- yil yanvar-dekabrda 14,2 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi ulushi 12,1% ni (12,1 %), xizmat ko'rsatuvchi boshqa tarmoqlar sohasida yalpi hududiy mahsulot tarkibidagi 28,2 % ni (30,0 %) tashkil etdi.

**Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi,
(jamiga nisbatan foizda)**




Toshkent shahri iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YAQQ) hajmi umumiy yalpi hududiy mahsulotning 90,5 % ni, mahsulotlarga sof soliqlar esa 9,5 % ni tashkil etdi.

Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'i yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibidagi ulushi hisobot yilida 44,5 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining yalpi hududiy mahsulotning tarkibidagi ulushi esa 55,5 % ni tashkil etdi.

2021-yil yanvar-dekabr oylari davomida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra yalpi hududiy mahsulot aholi jon boshiga 43211,1 ming so'mni tashkil etib o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,9 % ga o'sgan. Shu bilan birga, Toshkent shahrida yirik korxonalar iqtisodiy faoliyati jadallashishi oqibatida YAHMda kichik biznesning ulushi 49,0 % ni tashkil qildi.


Yalpi hududiy mahsulotda kichik biznes ulushi

(yanvar-dekabr oylari, jamiga nisbatan ulushi)



O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YAIMni shakllantirishda Toshkent shahrining qo'shgan hissasi 16,6 % ni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,5 punktga o'sgan.

Yalpi ichki mahsulotda Toshkent shahrining ulushi, foizda




II. SANOAT

Dastlabki ma'lumotlarga asosan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida faoliyat ko'rsatayotgan sanoat korxonalari tomonidan 86099,6 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilishiga erishildi va o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan sanoat ishlab chiqarish indeksi 113,9 % ni tashkil etdi.

Hisobot yilida 34029,8 mlrd.so'mlik iste'mol tovarlari ishlab chiqarilib, 2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan o'sish 128,3 %ni tashkil etdi. Jumladan, 11221,8 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari, 21406,4 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mollari (2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan mos ravishda 114,3 % va 139,4 %) ishlab chiqarildi.

Jami sanoat ishlab chiqarish hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatida ishlab chiqarish hajmining 116,2 % ga, tog'-kon va ochiq konlarni ishlash sanoati 117,1% ga va suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilishning 77,7% ga, elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalashning 79,8 % ga pasayishini ko'rishimiz mumkin.

**Yanvar-dekabr oylarida asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
sanoat ishlab chiqarish tarkibi (mlrd. so'mda)**



Ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoati


Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 67559,3 mlrd. so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan sanoat mahsuloti ishlab chiqarish indeksi 116,2 % ni tashkil etdi.

O'z navbatida ishlab chiqaradigan sanoatda o'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish 20,7 % ga, asosiy farmatsevtik mahsulotlar ishlab chiqarish 79,8 % ga, kiyim ishlab chiqarish 18,3 % ga oshgan bo'lsa, avtotransport vositalar, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish 17,5 %ga kamayganligini kuzatishimiz mumkin.

Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali ishlab chiqarish tarmog'ining ulushi 11,9 % ni, o'rta-yuqori texnologiyali 19,7 % ni, o'rta-quyi texnologiyali 32,5 % ni, quyi texnologiyali 35,9 % ni tashkil etdi.

Yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarishning texnologik tarkibi bo'yicha ishlab chiqaradigan sanoat tarkibi, foizda



Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Iqtisodiy tarmoqlar kesimida oʻrganilganda, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 13958,5 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi va jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 117,1 % ni tashkil qildi.

Togʻ-kon sanoatida ishlab chiqarilgan mahsulotlar turi boʻyicha tabiiy gaz va xom neft qazib olish hajmi oʻtgan yilning tegishli davriga 17,7 % ga oshgan, boshqa togʻ-kon sanoati faoliyati esa 35,3 % ga kamayganini kuzatish mumkin.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash.

Elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 3372,1 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 79,8 % ni) tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida elektr, gaz, bugʻ bilan taʼminlash va havoni konditsiyalash korxonalari mahsulotlari oʻtgan yilning tegishli davriga nisbatan 20,2 % ga kamaygan.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish.

Suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar 1209,8 mlrd. soʻmni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining ishlab chiqarish indeksi 77,7 % ni) tashkil etganligi kuzatildi. Bunda 2021-yil yanvar-dekabr oylarida suv bilan taʼminlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 22,3 % ga kamaygan.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotini
ishlab chiqarish hajmi**
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Iqtisodiy faoliyatning alohida turlari bo'yicha sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi	86099,6	113,9
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash	13958,5	117,1
Xom neft va tabiiy gaz	13717,6	117,7
Boshqa foydali qazilmalarni qazib olish mahsulotlari	199,8	64,7
Tog'-kon sanoatida texnika xizmatlari	41,1	94,3
Ishlab chiqaradigan sanoat	67559,3	116,2
Oziq-ovqat mahsulotlari	8391,6	106,9
Ichimliklar	4600,8	121,8
Tamaki mahsulotlari	294,6	126,9
To'qimachilik mahsulotlari	4524,3	120,3
Kiyimlar	1170,2	118,3
Charm va charmdan mahsulotlar	140,7	101,0
Yog'och hamda yog'och va po'kakdan yasalgan buyumlar (mebeldan tashqari); poxolcha va to'qish uchun materiallardan yasalgan buyumlar	941,3	155,0
Qog'oz va qog'oz mahsulotlari	1363,3	112,5
Nashr qilish xizmatlari va yozilgan materiallarni aks ettirish bo'yicha xizmatlar	1237,5	132,8
Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari	147,4	55,7

(davomi)

	<i>mlrd. so'm</i>	<i>o'sish sur'ati, foiz hisobida</i>
Kimyo mahsulotlari	2702,0	105,6
Asosiy farmatsevtika mahsulotlari va farmatsevtika preparatlari	3312,6	179,8
Rezina va plastmassa buyumlar	3075,8	111,6
Boshqa nometall mineral buyumlar	4020,4	120,7
Metallurgiya sanoati	10035,7	137,4
Mashina va asbob-uskunalaridan tashqari tayyor metall buyumlar	3337,7	86,1
Kompyuterlar, elektron va optik uskunalar	4739,6	102,9
Elektr uskunalar	7339,1	94,8
Boshqa guruhlarga kiritilmagan mashinalar va uskunalar	2127,7	78,9
Avtotransport vositalari, pritseplar va yarim pritseplar	512,5	82,5
Boshqa transport vositalari va uskunalar	639,3	142,0
Mebel	726,5	108,8
Boshqa mahsulotlar	868,7	124,8
Mashinalar va uskunalarni ta'mirlash va o'rnatish bo'yicha xizmatlar	1309,8	113,3
Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash	3372,1	79,8
Elektr energiyasi, gaz, bug' va konditsiyalangan havo	3050,1	77,3
Gazsimon yoqilg'ilarni ishlab chiqarish va taqsimlash	322,0	110,2
Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish	1209,8	77,7
Suvni yig'ish, qayta ishlash va taqsimlash	291,4	52,8


(davomi)

	<i>mlrd. so‘m</i>	<i>o‘shish sur‘ati, foiz hisobida</i>
Kanalizatsiya tizimi	1,7	58,4
Chiqindilarni yig‘ish, ishlov berish, yo‘qotish, utilizatsiya qilish	916,2	95,1
Tiklash va chiqindilarni yo‘qotish sohasidagi boshqa xizmatlar	0,4	75,0
Iste‘mol tovarlarini ishlab chiqarish	34029,8	128,3
shu jumladan:		
oziq-ovqat tovarlari	11221,8	114,3
nooziq-ovqat tovarlari	21406,4	139,4
Aroq va sharob mahsulotlari	1401,7	104,3

Davlat va xususiy biznesning o‘zaro hamkorligi doimo har bir zamonaviy demokratik davlatning diqqat e‘tiborida bo‘lgan. Keyingi yillarda butun dunyoda hukumat va biznes hamkorligining kuchayishi tendensiyasi kuzatilmoqda.

Davlat va xususiy sektorning o‘zaro munosabati mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqaror vaziyatni ta‘minlashda xususiy biznesning manfaatdorligini oshirishda katta xizmat qiladi. O‘z navbatida, mamlakatimizda davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish borasida olib borilayotgan islohotlar natijasi o‘laroq Toshkent shahrida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nodavlat sektorning ulushi salmoqli ekanligini ko‘rish mumkin. Tarmoq korxonalari tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida 41750,4 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi va sanoat ishlab chiqarish hajmiga 48,5 % ni tashkil etdi, shuning bilan birga davlat sektorida 44349,2 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 51,5 % ni tashkil etdi, nodavlat sektorida 60575,3 mlrd. so‘mlik mahsulot ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan 70,4 % ni tashkil etdi.

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish davlat va nodavlat sektorlarida
2021 -yil yanvar-dekabr oylarida (foiz hisobida)**




Sanoat sohasida modernizatsiyalash ko‘lamlarini jadallashtirish va kengaytirish bo‘yicha chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida, sanoat sohasida faoliyat yuritayotgan korxonalarda ishlab chiqarishning jadal rivojlanishi davom ettirildi.

Tarmoq korxonalari tomonidan 2021-yil yanvar-dekabr oylarida 86099,6 mlrd. so‘mlik mahsulotlar ishlab chiqarilib, umumiy hajmga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi quyidagicha tavsiflanadi.


Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish iqtisodiyotning muhim omili bo‘lib, jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash mahsulotlari faoliyati sanoat ishlab chiqarish indeksi 117,1 % ni, qayta ishlash sanoati 116,2 % ni, elektr energiyasi, gaz, bug‘ va konditsiyalangan havo 79,8 % ni, suv bilan ta‘minlash, kanalizatsiya, chiqindilarni yig‘ish va qayta foydalanish bo‘yicha xizmatlar 77,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat mahsulotlarini
ishlab chiqarish** (*umumiy hajmga nisbatan foizda*)

2020 -yil yanvar-dekabr



2021-yil yanvar-dekabr



- Ishlab chiqaradigan sanoat
- Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash
- Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilitatsiya qilish
- Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat
mahsuloti turlarini ishlab chiqarish hajmi**
(*yirik korxonalar bo'yicha*)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar-dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr</i> <i>nisbatan % da</i>
Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash			
Neft	<i>Ming tn</i>	642,4	101,1
Gaz kondensanti	<i>Ming Tn</i>	733,9	97,2
Tabiiy gaz	<i>Mln. kub.m</i>	36077,7	101,9
Chaqiq tosh	<i>Tonna</i>	475925,3	60,6

(davomi)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar- dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr nisbatan % da</i>
Qayta ishlash sanoati			
Tamaki mahsulotlari, tamakidan tayyorlangan	<i>mln. dona</i>	1908,0	132,8
Yangi so'yilgan yoki sovutilgan go'sht	<i>tonna</i>	34,5	-
Yumshoq bug'doy va spelta uni	<i>tonna</i>	66317,0	65,9
Quyiltirilmagan va shakar qo'shilmagan, yog'liligi 6 % dan yuqori sut va qaymoq	<i>tonna</i>	4802,9	110,1
Pishloq va tvorog	<i>tonna</i>	9,4	18,1
O'simlik yog'i (tozalangan)	<i>tonna</i>	4,5	0,4
Margarin va spredlar	<i>tonna</i>	2759,5	55,8
Aroq - 100% spirt	<i>ming litr</i>	17923,5	86,7
Konyak spirti - 100% spirt	<i>ming litr</i>	2754,6	82,0
Uzum vinosini distillash yoki uzumni siqish natijasida olingan spirt nastoykalari - 100% spirt	<i>ming litr</i>	643,2	89,7
Uzum vinolari	<i>ming litr</i>	8592,6	88,3
Pivo	<i>ming litr</i>	68133,1	122,6
Paxtadan yigirilgan ip	<i>tonna</i>	42499,7	160,1
Tarkibida 85 mas.% yoki undan ko'p paxta tolasi bo'lgan, ustki zichligi 200 g/kv.m dan kam ip gazlamalar	<i>ming m2</i>	1187,8	78,9

(davomi)

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar- dekabr</i>	<i>2020 - yil yanvar-dekabr nisbatan % da</i>
Mashinada yoki qo'lda to'qilgan trikotaj polotnolar	<i>tonna</i>	19608,8	135,5
Trikotaj yoki to'qilgan ustki kiyimlar	<i>ming dona</i>	1947,6	157,7
Ichdan kiyiladigan trikotaj kiyimlar	<i>ming dona</i>	4401,1	111,9
Boshqa ish kiyimlari	<i>ming so'm</i>	320272,0	112,1
Yarim tsellyulozadan tayyorlangan gofirovka qilish uchun qog'oz (o'rtacha taramlangan)	<i>tonna</i>	1862,0	106,0
Daftarlar	<i>tonna</i>	139,1	48,1
Plastmassadan qutichalar, yashiklar, savatlar, panjarasimon idishlar va shu kabi buyumlar	<i>tonna</i>	2434,6	9,5
Kitoblar, geografiya xaritalar, gidrografik yoki shu kabi kartalarning barcha turlari, reproduksiya, chizmalar va fotosuratlar, otkritkalarini bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	218184563,0	98,0
Gazetalarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	35964459,0	115,4
Bosib chiqarilgan pochta va gerbli markalari, titul hujjatlari, mikroprosessor kartochkalari, cheklar va boshqa qimmatli qog'ozlar va shu kabilarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	11308964,0	112,3
Seyalki	<i>dona</i>	154,0	91,7
Haftada to'rt martadan kam chiqadigan jurnallar va davriy nashrlarni bosib chiqarish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	2764355,0	47,8
Yog'lash uchun ishlatiladigan moylar	<i>ming tonna</i>	2,2	-
Suyultirilgan propan va butan	<i>ming tonna</i>	513,0	107,1

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar - dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabrga nisbatan % da</i>
Texnik oltingugurt	<i>tonna</i>	255087,0	91,6
Murakkab organik erituvchilar va suyultirgichlar	<i>tonna</i>	45,0	67,2
Akril va vinil polimerlari asosidagi bo'yoqlar va laklar, suv muhitida	<i>tonna</i>	15285,0	96,9
Sintetik polimerlar asosidagi bo'yoqlar va laklar	<i>tonna</i>	6893,0	72,8
Denaturlanmagan, spirt konsentratsiyasi 80 % hajmdan kam bo'lmagan etil spirti	<i>ming litr</i>	15801,0	96,0
Chakana savdo uchun qadoqlangan yoki dozalarga bo'lingan, tarkibida penitsilin yoki uning hosilalari bo'lgan, penitsilin kislotasi tuzilmasiga ega yoki tarkibida streptomitsin yoki uning hosilalari bo'lgan medikamentlar	<i>tonna</i>	161,2	90,1
Tarkibida gormonlar yoki antibiotiklar bo'lmagan medikamentlar	<i>tonna</i>	15219,0	87,0
Chakana savdo uchun qadoqlangan, tarkibida boshqa antibiotiklar bo'lgan medikamentlar	<i>tonna</i>	2670,5	67,5
Binolar va inshootlar uchun sement, beton yoki sun'iy toshdan yig'ma konstruksiyalar elementlari va boshqa buyumlar	<i>tonna</i>	1494313,3	2,3 marta
Qurilish uchun o'tga chidamsiz g'ishtlar	<i>ming dona</i>	769,0	34,1
Butilkalar	<i>ming dona</i>	344697,4	101,0
Sement, beton yoki sun'iy toshdan qurilish uchun g'isht va bloklar	<i>tonna</i>	1268557,0	175,5
Temirdan yoki legirlanmagan po'latdan bolg'alangan, issiqalayin prokatka qilingan, issiqalayin cho'zilgan yoki ekstrudirlangan chiviqlar va sterjenlar, jumladan prokatkadan keyin kalavalarga o'ralgan chiviqlar	<i>tonna</i>	122315,3	141,0

Po'latdan choksiz neft va gaz quvurlari	<i>tonna</i>	18304,0	105,6
Mis sim	<i>tonna</i>	30401,7	125,8
Alyuminiydan elektr izolyatsiyasiz o'ralgan sim, po'lat arqonlar, to'qilgan shnurlar va shu kabi buyumlar	<i>tonna</i>	1569,9	168,1
Temir yoki po'lat simdan matolar, panjaralar, to'rlar va to'siqlar	<i>tonna</i>	608,8	12,1
Elektrsiz isitiladigan markaziy isitish radiatorlari va ularning qora metallardan yasalgan qismlari	<i>tonna</i>	2604,6	-
Qishloq xo'jaligi, bog'dorchilik yoki o'rmon xo'jaligida ishlatish uchun dastakli asboblari	<i>tonna</i>	0,5	66,7
Bug' qozonlari yoki boshqa bug' generator qozonlar; bug' qizdirgichli suv qozonlari	<i>tonna</i>	2,9	105,6
1 kV dan ortiq bo'lmagan kuchlanish uchun avtomatik o'chiruvchilar	<i>tonna</i>	44,8	39,4
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lmagan elektr zanjirini o'chirish, almashlab ulash yoki himoyalash uchun apparatura bilan jihozlangan taqsimlash shitlarini va boshqa panellar	<i>tonna</i>	85,3	58,7
Izolyatsiya qilingan o'rash simlari	<i>tonna</i>	5361,1	2,5 m.
Kuchlanishi 1 kV dan ortiq bo'lgan (yuqori voltli), boshqa elektr toki o'tkazgichlari	<i>tonna</i>	8683,0	3,5 m.
Sovutkich va muzlatkichlar	<i>dona</i>	493844,0	114,2
Traktorlar	<i>dona</i>	213,0	31,6
Tuproq tayyorlash yoki ishlov berish uchun ishlatiladigan mashinalarning qismlari	<i>tonna</i>	8,0	53,3
Suyuqliklarni bir joydan boshqa joyga o'tkazish uchun markazdan qochiradigan cho'ktirma nasoslar	<i>dona</i>	113,0	95,8

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021- yil yanvar- dekabr</i>	<i>2020- yil yanvar-dekabr nisbatan % da</i>
--	----------------------------	---	--

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektroenergiya	<i>Mln.kVt soat</i>	354,5	81,8
Issiqlik energiyasi	<i>Ming Gkal</i>	13517,0	99,8
Elektr energiyasini uzatish bo'yicha xizmatlar	<i>Ming so'm</i>	817727,0	76,7

	<i>O'lchov birligi</i>	<i>2021-yil yanvar- dekabr</i>	<i>2020 -yil yanvar-dekabr nisbatan % da</i>
--	----------------------------	--	--

**Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va
utilizatsiya qilish**

Tabiiy suv, suvga ishlov berish va suv bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	190094466,0	89,5
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	98683364,0	102,9
Xavfsiz chiqindilarini yig'ish bo'yicha xizmatlar	<i>ming so'm</i>	109719885,0	108,8
Plastmass chiqindilar	<i>tonna</i>	1591,0	-
Xavfsiz metall chiqindilar	<i>tonna</i>	5597,0	77,6
Boshqa guruhlariga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar	<i>tonna</i>	1046,0	123,0
Yuk ortish stansiyalarining qayta foydalanishga yaroqsiz xavfsiz chiqindilar bilan bog'liq xizmatlar	<i>ming so'm</i>	2014504,0	43,0
Xavfli (zaharli) kimyoviy chiqindilar	<i>tonna</i>	415,8	94,5
Birlamchi elementlarning, birlamchi elementlar batareyalarining, elektr akkumlyatorlarining chiqindilari va parchalari	<i>tonna</i>	140,0	5,8 m.
Xavfli bo'lmagan chiqindilarni qayta ishlash, likvidatsiya qilish, yoqish va yo'qotish xizmati	<i>ming so'm</i>	2184072,0	30,4

Hududlar bo'yicha sanoat ishlab chiqarish hajmi

Toshkent shahrida sanoat korxonalarini modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash borasida amalga oshirilayotgan ishlar hududda ishlab chiqarish hajmi va sifatini yuksaltirishga xizmat qilmoqda. Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmi tarkibida eng ko'p Yashnobod tumani (Toshkent shahri sanoat ishlab chiqarish hajmining 26,3% ulushini), Chilonzor tumani (10,1 %), Mirobod tumani (9,1 %), Olmazor (7,8 %), Sergeli tumani (7,6 %), Bektemir tumani (7,0 %), Shayxontohur (6,8%), Yakkasaroy (6,1%) hissasiga to'g'ri keladi. Shuning bilan birga, eng kam ulush Yangiheyot (3,1 %), Yunusobod (5,1%) tumanlariga to'g'ri keladi.

Hududlarning jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi, foizda
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)



Dunyodagi eng rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, sanoat mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, Toshkent shahri va tumanlarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmini tumanlararo hamda tumanlarni shahar ko'rsatkichlari bilan taqqoslash orqali tahlil qilish, sanoat mahsulotini aholi jon boshiga to'g'ri keladigan miqdori dinamikasini kuzatib borish, hududlardagi ustuvor vazifalarni va o'sish nuqtalarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi. O'z navbatida, joriy yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida sanoat mahsuloti ishlab chiqarilishi 86099,6 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 113,9 % ni tashkil etdi.


Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti hajmi aholi jon boshiga 30538,8 ming so'mni yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,7 %ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin. Shuningdek, Toshkent shahrida iste'mol tovarlari

ishlab chiqarilishi 34029,8 mlrd. soʻmni tashkil etib, Toshkent shahrida ishlab chiqarilgan isteʼmol tovarlari hajmi aholi jon boshiga 12070,1 ming soʻmni yoki oʻtgan yilning mos davriga nisbatan oʻsish surʼati 120,3 % ga yetkazilganligini kuzatishimiz mumkin.

Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish


Tayyor mahsulotlar ishlab chiqarilishini ragʻbatlantirish va turlarini kengaytirish, isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmini 2021-yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan (28,3 % ga) oshishiga taʼsir koʻrsatdi, jami sanoat ishlab chiqarish hajmidagi ulushi esa 39,5 % ni tashkil etdi.

Isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmining tarkibi, jami isteʼmol tovarlari ishlab chiqarish hajmiga nisbatan, foizda
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)




Oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 11221,8 mlrd. soʻmga yetkazilib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 33,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish 21406,4 mlrd. soʻm, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 62,9 %, alkohol mahsulotlarini ishlab chiqarish 1401,7 mlrd. soʻm hisoblanib, jami isteʼmol tovarlaridagi ulushi 4,1 % ni tashkil etdi.


**Hududlarning jami iste'mol tovarlari ishlab chiqarish
hajmidagi ulushi, foizda (2021- yil yanvar-dekabr oylarida)**



**Hududlarda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish indeksi, foizda
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



**Hududlarda iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmlarning
o'sish sur'atlari, foizda (2021- yil yanvar-dekabr oylarida,
o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan)**



Bunda, Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishning eng katta o'sish sur'atlari Chilonzor tumani (119,8 %), Shayxontohur tumani (116,3 %), Yakkasaroy tumani (116,0 %), Sergeli tumani (115,5 %) va Olmazor tumanlarida (112,4 %) kuzatilmoqda. Shu o'rinda iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda eng kichik o'sish sur'atlari Uchtepa tumani (99,2 %), Yangiheyot tumani (107,4 %) va Yunusobod tumanlarida (107,5 %) kuzatilgan.


Sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning hissasi

Kichik tadbirkorlik sub'ektlari sanoat ishlab chiqarishda bir maromdagi o'sish ta'minlandi. Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida sanoat ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi 36,3 % ni tashkil etgan.

**Hududlar bo'yicha kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab
chiqarishdagi ulushi, foizda (yanvar-dekabr)**

Hududlar kesimida kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Olmazor tumani (jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi 65,1 %), Yunusobod (54,9 %), Sergeli (52,2 %) tumanlarida kuzatildi. Shu bilan birga, eng kichik ulushi Mirobod (22,4 %), Shayxontohur (20,5 %) va Yashnobod (18,1 %) tumanlarida kuzatildi.

**2021-yil yanvar-dekabr oylarida tumanlar kesimida kichik biznesning
jami sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi ulushi, foizda**




**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar
mahsulotlarining ishlab chiqarilishi**

Hisobot davrida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar tomonidan 28577,0 mlrd. soʻmlik mahsulot ishlab chiqarildi.

Oʻtgan yilda qoʻshma korxonalarning umumiy ishlab chiqarishdagi ulushi 28,1 % ni tashkil etgan boʻlsa, hisobot davrida bu koʻrsatkich 33,2 % ni tashkil qildi.

Qoʻshma korxonalar tomonidan joriy yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotining Respublika sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 26,6 % ni tashkil etdi, bu iqtisodiyotni isloh qilish va liberallashtirishni, jahon bozorida mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish imkonini berdi.

**Chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalar mahsulotlarining
sanoatning umumiy hajmidagi ulushi, foizda
2021- yil yanvar-dekabr oylarida**



Faoliyat yuritayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Toshkent shahrida 16,1 mingga yaqin sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, ulardan 2074 ta korxona jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning (12,9 %) Olmazor tumaniga, 1985 ta korxona (12,3 %) va Chilonzor tumaniga, 1822 ta korxona (11,3 %) Uchtepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


Faoliyat yuritayotgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2022- yil 1-yanvar holatiga)



Yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari soni, birlik

(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)




2021-yil yanvar-dekabr oylarida Toshkent shahrida 2066 ta yangi sanoat korxonalari tashkil etilgan bo'lib, ulardan qariyb 11,1 % Chilonzor, 11,0 % Olmazor, 9,9 % Uchtepa tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.

**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni
mahalliyashtirish dasturining asosiy ko'rsatkichlari**
(2021- yil yanvar-dekabr oylarida)

	<i>Loyihalar soni, birlikda</i>	<i>Ishlab chiqarish hajmi, mln. so'm</i>	<i>Eksportga sotilgan mahsulot hajmi, ming AQSh dollari</i>	<i>Yangi tashkil qilingan ish o'rinlari soni, birlikda</i>
Jami:	367	9054935,0	159095,0	2693
<i>shundan;</i>				
Bektemir	49	328192,0	2408,0	53
Mirzo Ulug'bek	19	450217,0	4182,0	77
Mirobod	18	800351,0	192,0	16
Olmazor	42	1046572,0	7724,0	40
Sergeli	89	264113,0	1155,0	530
Uchtepa	16	630614,0	-	118
Chilonzor	20	911705,0	46427,0	153
Shayxontohur	20	311578,0	22871,0	1293
Yunusobod	20	172467,0	174,0	61
Yakkasaroy	29	91771,0	-	-
Yashnobod	24	4010927,0	72194,0	345
Yangiheyot	21	36428,0	1768,0	7

Mahalliyashtirish dasturining jami ishlab chiqarish hajmida tumanlarning ulushi, foizda 2021- yil yanvar-dekabr oylarida



Statistik ko'rsatkichlarga tushuntirish

Sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi – korxona tomonidan ishlab chiqarilgan tayyor mahsulotlar, yarim tayyor, chetga sotishga mo'ljallangan, o'zining nosanoat bo'linmalariga va kapital qurilishga mo'ljallangan mahsulotlar hajmini o'z ichiga oladi; ishlab chiqarilishi hisobot davrida tugallanmagan uzoq muddatli mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha ishlar; sanoat tusidagi ishlar (xizmatlar);

Sanoat ishlab chiqarishda o'zgarish indeksleri – solishtirma davrlarda mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) fizik hajmining o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir; Iste'mol mollari – asosan shaxsiy iste'mol yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda foydalanadigan sanoat mahsulotlari; iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmi amaldagi narxlarida (QQS va aksizlar bundan mustasno) hisoblab chiqiladi;

Natura ko'rinishida sanoat ishlab chiqarish hajmi – boshqa korxonalarga jo'natish uchun yoki ishlab chiqarishga mo'ljallangan mahsulotlarni, shu jumladan korxonaning sanoat ehtiyojlari uchun sarflangan mahsulotlarni o'z ichiga oladi, ya'ni yalpi mahsulot;

Ishlab chiqarishni texnologik rivojlanish darajasiga ko'ra guruhlash Yevrostat texnologik faoliyatining tasnifi asosida ishlab chiqilgan.


Mahalliyashtirish darajasi – ishlab chiqarishda ishlatiladigan mahalliy materiallar, mehnat va intellektual resurslarning ulushini belgilaydi; Mahalliyashtirish darajasini hisoblashda xarajatlar, soliq to'lovlari va ishlab chiqarish jarayoniga bevosita aloqador bo'lmagan boshqa imtiyozlar hisobga olinmaydi; mahsulot sotish hajmi – savdo narxlarida keltiriladi (QQS va aksiyalar bundan mustasno);

Milliy valyutada eksport qilinadigan mahsulotlarning qiymati –O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo'yicha hisob-kitob qilgan holda to'ldiriladi.

III. INVESTITSİYALAR VA QURILISH

Joriy yilning yanvar–dekabr oylarida Toshkent shahrida iqtisodiyot va ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 57611,3 mlrd. so‘m asosiy kapitalga investitsiyalar o‘zlashtirildi va 2020-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni tashkil qildi.

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalar hajmi va o‘sish sur‘ati
(2021- yil yanvar-dekabr)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning o‘zlashtirilgan hajmi bo‘yicha tumanlar kesimida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami asosiy kapitalga investitsiyalarning 18,7 % o‘zlashtirildi.

Shuningdek, Yunusobod tumani jami investitsiyalar hajmidan 18,3 % ni, Shayxontohur tumani 13,2 % ni tashkil etmoqda.

Mirzo Ulug‘bek tumani 8,0 %, Olmazor va Yashnobod tumanlarida ushbu ko‘rsatkich mos ravishda bir xil 7,7 % ni tashkil etdi.

Uchtepa va Yangiheyot tumanlarida investitsiyalar eng kam o‘zlashtirilgan bo‘lib, har birining Toshkent shahridagi ulushi 3,3 % va 2,4 % ni tashkil etdi.

**Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning hududlar
bo'yicha taqsimlanishi (2021- yil yanvar-dekabr)**

mln. so'm

	<i>Jami investitsiyalar</i>	<i>Markazlashgan</i>	<i>Markazlashmagan</i>
Toshkent shahri	57611336,5	11765253,6	45846082,9
<i>tumanlar:</i>			
Bektemir	2065615,7	10228,3	2055387,3
Mirzo Ulug'bek	4605808,1	784772,6	3821035,5
Mirobod	10782210,4	5777206,9	5005003,5
Olmazor	4427809,2	540483,9	3887325,3
Sergeli	2474457,2	100947,0	2373510,2
Uchtepa	1919587,6	345544,4	1574043,2
Chilonzor	4077488,2	480574,7	3596913,6
Shayxontohur	7601385,6	1991162,0	5610223,6
Yunusobod	10531312,2	1310936,5	9 220 375,7
Yakkasaroy	3306065,8	125541,8	3180524,0
Yangihayot	1408674,9	116451,2	1292223,7
Yashnobod	4410921,6	181404,3	4229517,3

Markazlashgan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 53,6 % o'zlashtirildi.

Shuningdek, Shayxontohur tumani jami investitsiyalar hajmidan 26,2% ni, Uchtepa tumani 18,0 % ni tashkil etmoqda.


Markazlashmagan investitsiyalarning asosiy kapitalga o'zlashtirilgan hajmi bo'yicha tumanlar kesimida Bektemir tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda jami markazlashgan asosiy kapitalga investitsiyalarning 99,5 % o'zlashtirildi.

Shuningdek, Yakkasaroy tumani jami investitsiyalar hajmidan 96,2% ni, Sergeli tumani 95,9 % ni tashkil etmoqda.

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar
(2021- yil yanvar-dekabr)


	<i>Mrd. so'm</i>	<i>O'sish sur'ati, % da</i>	<i>Jamiga nisbatan ulushi, % da</i>
Asosiy kapitalga investitsiyalar	57 611,3	104,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>			
Markazlashgan investitsiyalar:	11765,2	137,1	20,4
budjet mablag'lari	4377,0	116,3	7,6
Davlat maqsadli jamg'armalari	23,1	25,4	0,1
Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi	1353,1	80,4	2,3
O'zbekiston Respublikasi kafolati ostidagi kreditlar	6012,0	198,5	10,4
Markazlashmagan investitsiyalar:	45846,1	97,9	79,6
korxona mablag'i	23152,6	81,8	40,2
aholi mablag'i	1810,2	107,2	3,1
to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	16823,6	124,8	29,2
tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	4059,7	121,4	7,1

Markazlashgan va markazlashmagan investitsiyalarning jami asosiy kapitalga investitsiyalar hajmidagi ulushi, (umumiy hajmga nisbatan, %da)




Markazlashgan moliyalashtirish manbalari hisobidan 11765,2 mlrd.so‘m yoki 137,1% (jami investitsiyalar hajmining 20,4% ga) ko‘p o‘zlashtirildi, mos ravishda, markazlashmagan moliyalashtirish manbalari hisobidan 45846,1 mlrd.so‘m yoki 97,9 % (jami investitsiyalardagi ulushi 79,4 %).

Asosiy kapitalga o‘zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashgan moliyalashtirish manbalari




Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning markazlashmagan moliyalashtirish manbalarining jami investitsiyalar hajmidagi ulushi, foizda



Markazlashmagan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari asosan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kafolatlanmagan kreditlar (jami investitsiyalar hajmiga nisbatan 29,2%), korxona mablag'lari (40,2 %) hisobiga to'g'ri keldi.

Asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, foizda (2021- yil yanvar-dekabr)



Asosiy kapitalga investitsiyalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibida qayta ishlash sanoati yetakchilik qilmoqda. Ushbu tarmoqda jami moliyalashtirish manbalari hisobidan 14376,0 mlrd.so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 25,0% o'zlashtirilgan.


Keyingi o'rinda qurilish tarmog'i bo'lib, jami moliyalashtirish manbai hisobidan 6376,9 mlrd. so'm yoki jami asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 11,1% o'zlashtirilgan.

Sanoat tarmog'i tarkibida eng ko'p investitsiya o'zlashtirilgan 3 faoliyat turi quyidagilar:

- Elektr energiyasi gaz bug' va konditsiyalangan havo ishlab chiqarish 3710,3 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 6,4 %);

- Elektr uskunalari ishlab chiqarish 2774,2 mlrd.so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 4,8 %).

- Oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish 1995,7 mlrd. so'm (jami asosiy kapitalga investitsiyalardagi ulushi 3,5 %);




Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Toshkent shahri bo'yicha qurilish–montaj ishlarining ulushi 41,8 % ni, mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar 53,7 % ni hamda boshqa xarajatlar ulushi 4,5 % ni tashkil etdi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning mulkchilik shakllari
bo'yicha texnologik tarkibi
(2021- yil yanvar-dekabr)**


	<i>Jami</i>	<i>Davlat</i>	<i>Nodavlat</i>
Jami, mlrd. so'm	57611,3	7004,6	50606,7
<i>shu jumladan jamiga nisbatan % da:</i>	100,0	12,2	87,8
Qurilish – montaj ishlari	24085,8	3868,5	20217,3
Mashina, uskuna, inventar	30941,7	2774,0	28167,7
Boshqa xarajatlar	2583,8	362,1	2221,7

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi, foizda
(2021-yil yanvar-dekabr)**



Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibida: Qurilish – montaj ishlari bo'yicha Shayxontohur tumanida 59,9 % Uchtepa tumanida 56,9 %, Mirzo Ulug'bek tumanida 56,3 %, Olmazor tumanida 53,4 % hamda Sergeli tumanida 45,5 %, ni tashkil etdi. Mashina, uskuna, inventar sotib olishga xarajatlar bo'yicha Bektemir tumanida 75,8 % ni, Mirobod tumanida 68,4 % ni, Chilonzor tumanida 68,1 % ni Yashnobod tumanida 59,0 % ni hamda Yakkasaroy tumanida 58,0 % ni tashkil qildi.

**Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab
chiqarish tarkibi, foizda**
(2021- yil yanvar-dekabr)




Asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida: yangi qurilish bo'yicha Yangiheyot tumani 77,1 %, Yunusobod, Olmazor tumanlarida 62,2 %ni, Shayxontohur tumanida 57,7 % hamda Uchtepa tumanida 52,4 % ni, tashkil etdi. Kengaytirish, rekonstruksiya, modernizatsiya, texnik qayta qurollantirish bo'yicha Yashnobod tumanida 32,6 % ni, Bektemir tumanida 32,2 % ni, Sergeli tumanida 29,6 %,ni, Yakkasaroy tumanida 27,6 % ni, Uchtepa tumanida 27,2 % ni hamda asosiy kapitalga investitsiyalarning takror ishlab chiqarish tarkibida boshqalar yo'nalishida Mirobod tumanida 56,8 %ni, Chilonzor tumanida 50,2 % ni, Yashnobod tumanida 47,5 % ni va Bektemir tumanida 42,6 % ni tashkil qildi.

**Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'zlashtirilgan
asosiy kapitalga investitsiyalar
(2021- yil yanvar-dekabr)**

	Mlrd. so'm	Jamiga nisbatan ulushi, % da	
		2020- y.	2021- y.
Asosiy kapitalga investitsiyalar - jami	57611,3	100,0	100,0
<i>shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha:</i>			
